| <b>Umarchodjaeva Muyassarhon Ganievna, Omanova Nargiza Rustam qizi</b>                                                                                                                                                           |     |
| Moliyaviy faoliyat natijalari hisobi va auditini takomillashtirish.....                                                                                                                                                          | 548 |
| <b>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li</b>                                                                                                                                                        |     |
| Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektori korxonalariga kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishda markaziy banklarning qayta moliyalash stavkalarining rolini tahlil qilish ..... | 553 |
| <b>Jabbarov Eliboy, Abdullayeva Charos Abdullo qizi</b>                                                                                                                                                                          |     |
| O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsiyalarning roli va iqtisodiy samaradorligi .....                                                                                                           | 558 |
| <b>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li</b>                                                                                                                                                   |     |
| Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish orqali chiqindilarni boshqarish muammosini bartaraf etish yo'llari .....                                                                                                                  | 563 |
| <b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li, Hamrokulov Ulug'bek Abdurahmatovich</b>                                                                                                                                                   |     |
| Korxonani samarali boshqarishni ta'minlash strategiyalari .....                                                                                                                                                                  | 567 |
| <b>D.Mutalova</b>                                                                                                                                                                                                                |     |
| Masofaviy ta'lim platformalarining qiyosiy tahlili va funksional xususiyatlari.....                                                                                                                                              | 571 |
| <b>Nabieva Nilufar Nabi qizi</b>                                                                                                                                                                                                 |     |
| Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga ta'siri.....                                                                                                                                                                            | 577 |
| <b>Aripova Ziyoda Xayrullayevna, Nurmuxamedova Tursunoy Usmonovna</b>                                                                                                                                                            |     |
| Transportda turistik xizmatlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish.....                                                                                                                                                   | 581 |
| <b>Tuychiyev Anvarjon Muxtorjonovich</b>                                                                                                                                                                                         |     |
| Ipak yo'lining tarixiy madaniy merosi va hunarmandchiligi: dolzarb muammolar va tadqiqot istiqbollari .....                                                                                                                      | 584 |
| <b>Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna</b>                                                                                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Eksport faoliyatini rag'batlantirishda institutsional va moliyaviy mexanizmlarning roli.....                                                           | 589 |
| <b>Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich</b>                                                                                                             |     |
| Elektron pul evolyutsiyasi.....                                                                                                                        | 595 |
| <b>Marpatov Mavlonxon Dadashevich</b>                                                                                                                  |     |
| Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida sanoat korxonalarining roli.....                                                                                | 600 |
| <b>Nasullayeva Yoqutoy Nasim qizi</b>                                                                                                                  |     |
| O'zbekistonda turizm marketingi va raqobatbardoshligini oshirish .....                                                                                 | 606 |
| <b>Ikramova Nasiba Axmadovna</b>                                                                                                                       |     |
| Kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy yo'nalishlari.....                                                                                           | 610 |
| <b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li</b>                                                                              |     |
| Jamiyatda imkoniyati cheklanganlarning bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.....                                                      | 615 |
| <b>Tilavova Munisa Maxmudovna</b>                                                                                                                      |     |
| Moliyaviy matematika vositalarining O'zbekiston kredit tizimidagi qo'llanilishi.....                                                                   | 620 |
| <b>Shamsiyeva Nigora Rafiq qizi</b>                                                                                                                    |     |
| Ecological sustainability in tourism: regional practices and global reflections.....                                                                   | 626 |
| <b>Sayyora Safaeva</b>                                                                                                                                 |     |
| Quyi amudaryo mintaqasida turli darajadagi destinasiyalararo ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish asoslari va ularning o'ziga xos jihatlari..... | 631 |
| <b>Doschanov Tangirbergen, Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich</b>                                                                                   |     |
| Fine dining restoranlarida marketing strategiyalarining shakllanishi va mijoz jalb qilishda ularning ahamiyati.....                                    | 641 |
| <b>Jumaniyazova Sarvinoz Mansur qizi</b>                                                                                                               |     |
| Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini kontseptual asoslari va shartlari asoslari xususida.....                                           | 644 |
| <b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b>                                                                                                              |     |
| Davlat sektoridagi tashkilotlarda smetalar tuzish tartibi .....                                                                                        | 651 |
| <b>Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich</b>                                                                                                          |     |
| Качественное развитие рынка труда узбекистана.....                                                                                                     | 657 |
| <b>Мамадалиева Хафиза Холдаровна</b>                                                                                                                   |     |
| Kichik biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allik darajasini pasaytirishdagi o'rni.....                                    | 664 |
| <b>Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Устойчивое развитие esg-менеджмента: от тренда к фундаментальной стратегии выживания и процветания.....                                                | 670 |
| <b>Собирова Нилуфар Бекпулат кизи</b>                                                                                                                  |     |
| Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi .....                                                        | 676 |
| <b>Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi</b>                                                                                                               |     |
| Qurilish loyihalarini moliyalashtirishning milliy va xalqaro tajribasi .....                                                                           | 681 |
| <b>Yashin Iboyev</b>                                                                                                                                   |     |
| Xizmatlar sohasida innovatsion muhitni yaratishning dolzarb masalalari.....                                                                            | 687 |
| <b>Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov, Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev</b>                                                                                |     |
| Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarishda tovar aylanmasi tahlili.....                                                                  | 692 |
| <b>Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna</b>                                                                                                                    |     |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlarda innovatsion faoliyatning moliyaviy va boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari .....                           | 698 |
| <b>Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi</b>                                                                                                                 |     |
| Effect of processing on nutrients in tomato products.....                                                                                              | 706 |
| <b>Ergasheva Muhabbat Komil kizi</b>                                                                                                                   |     |
| Asosiy vositalarni davomiy (uzluksiz) baholash.....                                                                                                    | 710 |
| <b>Kuziev Islom Nematovich, Raxmonov Xurshidbek Shavkat o'g'li</b>                                                                                     |     |



|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sun'iy intellekt: Markaziy banklarni qanday o'zgartirmoqda? .....                                                                                    | 715 |
| <b>Shahboz Qozoqov Ortiqbaevich</b>                                                                                                                  |     |
| Kichik biznes subyektlarida tashkil etilgan baliqchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni..... | 720 |
| <b>Vazirov Azamat Yoqubjonovich</b>                                                                                                                  |     |
| Korxonalarning marketing faoliyatini strategik rivojlantirish yo'nalishlari.....                                                                     | 725 |
| <b>Isokboeva Zilola Rustam qizi</b>                                                                                                                  |     |
| К целям повестки 2030: анализ экономических индикаторов узбекистана .....                                                                            | 728 |
| <b>Салахутдинова Юлдуз Голибовна</b>                                                                                                                 |     |
| Современное состояние исследований в области использования цифровых технологий в инвестиционной деятельности .....                                   | 734 |
| <b>Ирмухамедова М.Д.</b>                                                                                                                             |     |
| Tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi jarayoni, uning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini tahlil qilish.....                                  | 741 |
| <b>Eshqobilov Ahmat Jovliyevich</b>                                                                                                                  |     |
| Aholi sonining o'sishi va iqtisodiy infratuzilmaga yuklanish: hududiy tahlil .....                                                                   | 745 |
| <b>To'rayev Nurbek Baykulovich</b>                                                                                                                   |     |
| O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va boshqarishning hududiy rivojlantirish strategiyasi .....                                        | 751 |
| <b>Nuraliev Temurjon Erkinjon o'g'li</b>                                                                                                             |     |
| O'zbekistonning zamonaviy korxona va tashkilotlarda boshqaruv masalalari .....                                                                       | 756 |
| <b>Ahtamova Mohigul Erkinovna</b>                                                                                                                    |     |
| Davlat tashkilotlarida ichki audit tuzilmalarini tashkil etishni rivojlantirish .....                                                                | 761 |
| <b>Nasimov Fazliddin Sirojevich</b>                                                                                                                  |     |
| Yashil moliyalashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli: imkoniyatlar va xavflar tahlili .....                                           | 765 |
| <b>Isoqulova Munisxon Abdurasul qizi</b>                                                                                                             |     |
| Критерии экологичности бренда: как измерить «зеленый» имидж? .....                                                                                   | 769 |
| <b>Носирова Чарос</b>                                                                                                                                |     |
| Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish .....                                                                              | 775 |
| <b>Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>                                                                                |     |
| Investitsion muhit tushunchasining makroiqtisodiy tahlili va nazariy model.....                                                                      | 780 |
| <b>Saidov Rasul Boltabayevich, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi</b>                                                                                  |     |
| «O'ztransgaz» AJ faoliyatini 2024–2027 yillarga prognozlashtirishda ekonometrik modellar asosida tahlil .....                                        | 784 |
| <b>Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li, Murodov Sardor Nurali o'g'li</b>                                                                             |     |
| Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar.....                                                                   | 791 |
| <b>Mahmudov Otamurod Hoshimovich, Murtazova Sh.N.</b>                                                                                                |     |
| Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....                                                   | 795 |
| <b>Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li</b>                                                                                                            |     |
| O'zbekiston chakana savdosi tizimi va uning rivojlanishi.....                                                                                        | 806 |
| <b>Yaqubov Azizbek G'anibekovich</b>                                                                                                                 |     |
| Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni va maqsadi .....                                                                             | 812 |
| <b>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</b>                                                                                                               |     |
| Investitsion faoliyatni amalga oshirishning xorij tajribasi va mamlakatimizda foydalanish istiqbollari.....                                          | 816 |
| <b>O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi</b>                                                                                                           |     |
| Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni.....                                                | 822 |
| <b>Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>                                                                                  |     |



|                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений .....                                            | 829 |
| <b>Бегалиев Файзали Умаралиевич</b>                                                                                                          |     |
| Sog'lomlashtirish turizmda ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning sintezi .....                                                                  | 832 |
| <b>Naimov Saidjon Yusup o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari .....                                 | 835 |
| <b>Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna</b>                                                                                                       |     |
| Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления) ..... | 841 |
| <b>Алиев Абдор Мураткулович</b>                                                                                                              |     |
| O'zbekistonda turizm va servis soxasida davalt- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari .....                                | 846 |
| <b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b>                                                                                                    |     |
| Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish .....                                                | 850 |
| <b>Jaxongir Rabbimov</b>                                                                                                                     |     |



**Jaxongir Rabbimov**

“KDB Bank O‘zbekiston” AJ xodimi

[rabbimov@outlook.com](mailto:rabbimov@outlook.com)ORCID: [0009-0000-4193-2208](https://orcid.org/0009-0000-4193-2208)

## TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION RISKLARINI BAHOLASH VA BOSHQARISH TIZIMINI TASHKIL QILISH

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tijorat banklarida operatsion tavakkalchiliklarni baholash va boshqarish tizimini shakllantirish masalalari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston bank tizimining amaldagi normativ-huquqiy bazasi, xususan, Markaziy bankning 3427-sonli “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi nizomida belgilangan talablar o‘rganiladi. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya va Singapur kabi ilg‘or davlatlar tajribasi asosida real vaqtlil monitoring, sun‘iy intellektga asoslangan anomal faoliyatlarni aniqlash tizimlari va risk axboroti platformalari kabi texnologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijasida O‘zbekiston bank sektorida operatsion tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, risk appetit tizimini takomillashtirish, stress-test amaliyotini chuqurlashtirish va ilg‘or axborot texnologiyalarini integratsiya qilish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur maqola tijorat banklari, tahlilchilar va bank nazoratchilari uchun ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** operatsion tavakkalchilik, tijorat banklari, risk appetit, sun‘iy intellekt (SI).

**Abstract:** This article presents a comprehensive analysis of the formation of an operational risk assessment and management system in commercial banks. The study examines Uzbekistan’s current regulatory framework, particularly the requirements outlined in the Central Bank’s Resolution No. 3427 “On Requirements for Risk Management Systems of Banks and Banking Groups.” Additionally, international best practices from countries such as the United States, the United Kingdom, and Singapore are analyzed, focusing on real-time monitoring, AI-based anomaly detection, and operational risk intelligence platforms.

The research identifies the key challenges hindering effective operational risk management in Uzbekistan’s banking sector and provides practical recommendations to overcome them. It specifically emphasizes the importance of enhancing the risk appetite framework, deepening stress testing practices, and integrating advanced information technologies. The article serves as a scientifically grounded and practically relevant resource for commercial banks, analysts, and regulatory authorities.

**Key words:** operational risk, commercial banks, risk appetite, artificial intelligence (AI).

**Аннотация:** В данной статье представлено всестороннее исследование вопросов формирования системы оценки и управления операционными рисками в коммерческих банках. Рассматривается действующая нормативно-правовая база банковского сектора Узбекистана, в частности требования, изложенные в постановлении Центрального банка №3427 «О требованиях к системам управления рисками банков и банковских групп». Также анализируется передовой международный опыт таких стран, как США, Великобритания и Сингапур — в частности,



технологии мониторинга в реальном времени, выявления аномалий на основе искусственного интеллекта и платформы оперативного управления рисками.

В результате исследования выявлены ключевые проблемы, препятствующие эффективному управлению операционными рисками в банках Узбекистана, и даны практические рекомендации по их устранению. Обоснована необходимость совершенствования системы риск-аппетита, углубления стресс-тестирования и интеграции современных информационных технологий. Статья может служить научно-обоснованным источником с практической значимостью для коммерческих банков, аналитиков и регулирующих органов.

**Ключевые слова:** операционный риск, коммерческие банки, аппетит к риску, искусственный интеллект (ИИ)

## KIRISH

Mamlakatimizda bank-moliya tizimini isloh qilish, uning barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda tijorat banklarining tavakkalchiliklarni, xususan, operatsion tavakkalchiliklarni samarali boshqarish darajasi bankning umumiy moliyaviy barqarorligi, ishonchiligi va faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Operatsion tavakkalchiliklar — bu bankning ichki jarayonlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, xodimlar yoki uchinchi shaxslarning qasddan yoki ehtiyotsiz harakatlari, axborot tizimlaridagi nosozliklar, shuningdek, turli tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan zarar (yo'qotish) yoki rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda bank tizimining raqamlashtirilishi, bank mahsulotlari murakkabligining ortishi hamda yangi xavf omillarining paydo bo'lishi operatsion tavakkalchiliklar boshqaruvini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil 7-martdagi 4/11-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomda operatsion tavakkalchiliklarni tizimli baholash va boshqarish mexanizmlari aniq belgilab berilgan. Jumladan, ushbu normativ hujjat orqali banklar faoliyatida risk appetit tushunchasini aniqlash, stress-testlar o'tkazish hamda tavakkalchiliklar chegaralarini belgilash kabi zamonaviy yondashuvlar asosida operatsion risklarni boshqarish bo'yicha ilg'or mexanizmlar joriy qilinmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — tijorat banklarida operatsion tavakkalchiliklarni baholash va boshqarish tizimining nazariy asoslarini o'rganish, milliy me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida ularni tahlil qilish, shuningdek, xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganib, O'zbekiston sharoitida moslashtirilgan samarali boshqaruv mexanizmlarini taklif etishdan iboratdir. Maqolada, shuningdek, tavakkalchiliklarni boshqarishda risk appetit tizimining ahamiyati alohida yoritilib, xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirma tahlil o'tkaziladi. Tadqiqotda tavakkalchiliklarni baholashga doir huquqiy, tizimiy va amaliy jihatlar ham qamrab olinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank faoliyatida tavakkalchiliklarni, ayniqsa operatsion risklarni samarali boshqarishga oid ilmiy-analitik izlanishlar so'nggi yillarda keng ko'lamda olib borilmoqda. Operatsion tavakkalchilik moliyaviy tizimdagi boshqa risklardan farqli ravishda ko'pincha murakkab, o'lchash qiyin va yashirin shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu risk turi inson omili, ichki jarayonlar, axborot tizimlari hamda tashqi voqealarning o'zaro murakkab ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Xalqaro amaliyotda, xususan Basel II va Basel III standartlarida, operatsion risk "bank ichki jarayonlari, insoniy xatolar, texnologik tizimlar yoki tashqi hodisalar natijasida yuzaga keladigan zarar ehtimoli" sifatida talqin etiladi (Basel Committee on Banking Supervision, 2006; 2011). Ushbu me'zonlar banklarga tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va kapital yetarliligini hisoblashda aniq metodologiyalarni qo'llashni tavsiya etadi.

Shuningdek, xatarlarni aniqlash va baholash samarali operatsion risklarni boshqarish tizimining asosiy jihatlari hisoblanadi. Tavakkalchiliklarni aniqlashda ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarur. Xatarlarni to'g'ri baholash esa bankka o'zining risk profilini aniq tushunish va mavjud resurslar hamda strategiyalarni eng samarali tarzda taqsimlash imkonini beradi.

Cruz (2015) operatsion tavakkalchilikni o'lchash tizimi ichki ma'lumotlar, tegishli tashqi statistikalar, ssenariy tahlili hamda biznes muhiti va ichki nazorat tizimlarini aks ettiruvchi omillar asosida qurilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Mikes (2009) esa interaktiv nazorat tizimlari orqali risk menejmentini strategik qarorlar va tashkilotning ichki amaliyotlariga integratsiya qilish zarurligini alohida qayd etadi. Bu yondashuv riskga oid qarorlar faqat maxsus bo'linmalar emas, balki boshqaruv organlari tomonidan ham qamrab olinishi lozimligini bildiradi.

O'zbekiston bank tizimi doirasida esa 2023-yil 7-mart kuni Markaziy bank tomonidan qabul qilingan 3427-sonli qaror asosida "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar



to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomda operatsion tavakkalchiliklarni tizimli boshqarish, risk appetit tushunchasi, stress-testlar, favqulodda moliyalashtirish rejalari va ichki hujjatlar muhim vositalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur yondashuv xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan holda milliy bank tizimida tavakkalchilik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yevropa, AQSh va Singapur kabi rivojlangan mamlakatlar banklarida operatsion risklarni aniqlashda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, real vaqt monitoringi va big data tahlil vositalari keng qo'llanilmoqda. Masalan, HSBC, JP Morgan va UBS banklari tavakkalchiliklarni baholashda moslashuvchan risk appetit modellari asosida strategik qarorlar qabul qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, operatsion risklarni samarali boshqarish nafaqat texnik metodlar, balki tashkilot ichidagi madaniyat, axborot tizimlari darajasi hamda boshqaruv organlarining yondashuviga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli maqolaning keyingi boblarida aynan ushbu omillar O'zbekiston tajribasi bilan solishtirgan holda chuqur tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tijorat banklarida operatsion risklarni aniqlash, baholash, boshqarish va tahlil qilish jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar xulosalari hamda mualliflarning amaliy tajribalari asosida tahlil qilinib, mustaqil yondashuvlar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining bank tizimi so'nggi yillarda izchil rivojlanib, raqamli transformatsiya hamda korporativ boshqaruv tamoyillarining kuchayishi natijasida tavakkalchiliklarni, xususan, operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish zarurati yanada dolzarb tus oldi. Mazkur tadqiqot doirasida milliy qonunchilik, amaliyot va xalqaro standartlar o'zaro solishtirilib, quyidagi muhim jihatlar aniqlab berildi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3427-sonli qaroriga muvofiq, banklar tavakkalchiliklarni boshqarishda tizimli yondashuvni joriy etishlari belgilangan. Ushbu hujjat orqali operatsion risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, stress-testlardan o'tkazish, risk appetitni belgilash va ichki hujjatlar orqali nazorat qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuv xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan bo'lsa-da, uning amaliyotga to'liq joriy etilishi banklar kesimida turlicha darajada kechmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar bank tizimida operatsion risklarni baholashda nafaqat an'anaviy ko'rsatkichlar, balki real vaqt rejimidagi monitoring, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt asosidagi modellar keng qo'llanilmoqda. Jumladan, JP Morgan va HSBC banklari operatsion xatoliklar bo'yicha avtomatik signal tizimlari, tahdidlarni prognozlovchi algoritmlar hamda risklarga oid ichki platformalardan foydalanmoqda. Ushbu yondashuvlar hozircha O'zbekiston tijorat banklarida to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, istiqbolda raqamli risklarni boshqarish tizimlari uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Quyidagi jadvalda xorijiy banklar tomonidan operatsion tavakkalchiliklarni boshqarishda qo'llanilayotgan texnologik yechimlar aks ettirilgan:

1-jadval. Xorijiy banklar tomonidan operatsion risklarni boshqarishda qo'llanilayotgan texnologiyalar

| # | Texnologiya nomi                       | Asosiy funksiyasi                                                                     | Banklar nomi                                          | Natija                                                                             |
|---|----------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Real-time Dashboard                    | Real vaqt rejimida risk indikatorlarini ko'rsatish, avtomatik ogohlantirishlar        | DBS Bank (Singapur), HSBC (Buyuk Britaniya)           | Risklarga tezkor javob berish, rahbariyat uchun vizual tahlil qulayligi ta'minlash |
| 2 | Operational Risk Intelligence Platform | Risk ma'lumotlarini to'plash, tahlil qilish va prognozlash                            | Barclays Bank (Buyuk Britaniya), OCBC Bank (Singapur) | Markazlashgan risk nazorati va hisobot tayyorlash imkoniyati                       |
| 3 | SI asosidagi Anomaly Detection         | Normal xatti-harakatlardan og'ishlarni aniqlash, tahdid yuzaga kelganda ogohlantirish | JP Morgan (AQSh), Wells Fargo (AQSh)                  | Firibgarlik va xatoliklarni avtomatik aniqlash, insoniy nazoratni kuchaytirish     |



Uchinchidan, risk appetit konsepsiyasi bank faoliyatining strategik rejalashtirish bosqichida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. U operatsion risklarning qaysi darajasini qabul qilish mumkinligini, ularni nazorat qilish chegaralarini hamda stress holatlarida bankning moliyaviy chidamlilik darajasini belgilash imkonini beradi. Milliy nizomda ushbu tushuncha huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lsa-da, banklar tomonidan uni amaliyotda aniqlash, mezonlarini belgilash va ularni doimiy ravishda yangilab borish jarayonlari hali izchil yo'lga qo'yilmagan.

To'rtinchidan, hozirgi kunda operatsion tavakkalchiliklarni baholashda asosiy muammo – banklarning ichki axborot tizimlarining cheklanganligi, tavakkalchiliklarga oid tarixiy ma'lumotlar bazasining zaifligi va risk madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligidadir. Bu esa tavakkalchiliklarni faqat yuz bergan hodisalar asosida emas, balki ehtimoliy ssenariylar asosida ham baholash imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda.

Beshinchidan, stress-testlarni o'tkazish banklar uchun qonunchilik asosida talab etilgan bo'lsa-da, amalda ularning ko'plab hollarda faqat formal xarakterda amalga oshirilayotgani, real xavf-xatar manbalarini aniqlashga xizmat qilmayotgani aniqlanmoqda. Buning asosiy sabablari – metodologik yondashuvlarning standartlashtirilmaganligi va amaliyotga integratsiya darajasining pastligidir.

Yakuniy tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston bank sektorida operatsion risklarni boshqarish tizimi shakllanayotgan bo'lib, u xalqaro standartlarga muvofiq holda rivojlanmoqda. Biroq tizimning to'liq ishlashi uchun banklarning institutsional salohiyatini oshirish, risk madaniyatini chuqurlashtirish va zamonaviy texnologiyalar asosida tavakkalchilikni boshqarish vositalarini joriy etish zarur. Ayniqsa, risk appetit ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash, stress-testlar natijalari asosida qarorlar qabul qilish orqali operatsion risklarni kamaytirishning barqaror mexanizmlarini yaratish lozim.

#### Tavsiyalar

Har bir bank o'zining strategik yo'nalishi va moliyaviy imkoniyatlariga mos individual risk appetit bayonotini ishlab chiqishi va uni doimiy monitoring qilish tizimini joriy etishi lozim.

Operatsion tavakkalchiliklarni monitoring qilish va baholash uchun bank axborot tizimlarida avtomatlashtirilgan indikatorlar, signalizatsiya tizimlari va tahdidlar bazasini shakllantirish zarur.

Operatsion risklar uchun maxsus ssenariylar ishlab chiqilib, har yillik stress-test natijalari asosida qarorlar qabul qilinishi, shuningdek tavakkalchiliklarga nisbatan ehtiyot choralar ishlab chiqilishi kerak.

Bank xodimlari o'rtasida operatsion risklarga oid tushunchalar, mas'uliyat va profilaktik chora-tadbirlar bo'yicha uzluksiz treninglar tashkil etilishi lozim.

Banklar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tavsiyalariga qo'shimcha ravishda, xalqaro reyting agentliklari, yirik audit kompaniyalari va xorijiy banklar tajribasini chuqur o'rganib, o'z faoliyatiga moslashtirib joriy etishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish – bank tizimi barqarorligining asosiy omillaridan biri bo'lib, u faqat normativ-huquqiy hujjatlar orqali emas, balki bank ichidagi madaniyat, texnologik salohiyat va strategik yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida operatsion tavakkalchiliklarning tijorat banklari faoliyatidagi o'rni, ularni baholash va boshqarish tizimining xalqaro tajribalari hamda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar chuqur tahlil qilindi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, operatsion tavakkalchiliklar bank faoliyatidagi eng keng qamrovli va murakkab risk turi hisoblanadi. Ular insoniy xatolar, texnik nosozliklar, noto'g'ri ichki jarayonlar yoki tashqi tahdidlar natijasida yuzaga kelib, bankning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2023–yil 7–martdagi 3427–sonli nizomi asosida milliy bank tizimida tavakkalchiliklarni, jumladan operatsion risklarni baholash va boshqarishga doir aniq normativ va tashkiliy talablar joriy etilgan. Mazkur tizim xalqaro yondashuvlarga yaqin bo'lsa-da, uni amaliyotda to'laqonli qo'llash borasida hali tizimli muammolar mavjud.

Uchinchidan, xalqaro tajribalar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya va Singapur kabi mamlakatlar banklarining ilg'or yondashuvlari operatsion risklarni baholashda zamonaviy texnologik vositalardan – big data, sun'iy intellekt va real vaqtlil monitoringdan keng foydalanilayotganini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston bank sektori uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

To'rtinchidan, risk appetit konsepsiyasi operatsion risklarni boshqarishda strategik vosita sifatida tan olingan bo'lsa-da, tijorat banklari tomonidan uni amaliyotda belgilash, tahlil qilish va doimiy monitoring qilish jarayonlari hali to'laqonli shakllanmagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. (2006). International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework (Comprehensive Version). Bank for International Settlements. Retrieved from: <https://www.bis.org/publ/bcbs128.htm>



2. Basel Committee on Banking Supervision. (2011). Principles for the Sound Management of Operational Risk. Bank for International Settlements. Retrieved from: <https://www.bis.org/publ/bcbs195.htm>
3. Cruz, M. G., Peters, G. W., & Shevchenko, P. V. (2015). Fundamental Aspects of Operational Risk and Insurance Analytics: A Handbook of Operational Risk. Wiley.
4. Mikes, A. (2009). Risk Management and Calculative Cultures. Management Accounting Research, 20(1), 18–40. <https://doi.org/10.1016/j.mar.2008.10.005>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023–yil 18–aprel). Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risidagi nizom (3427–son qaror). Retrieved from: <https://cbu.uz/oz/documents/3427/>
6. JP Morgan. (2021). Artificial Intelligence in Risk Management. JP Morgan Insights. Retrieved from: <https://www.jpmorgan.com/insights/ai-risk>
7. HSBC Holdings plc. (2020). Annual Report and Accounts 2020. Retrieved from: <https://www.hsbc.com/investors/results-and-announcements>
8. DBS Bank Ltd. (2022). Annual Report: Digital Transformation and Risk Management. Retrieved from: <https://www.dbs.com/investors/default.page>
9. Barclays PLC. (2021). Operational Risk Management Framework. Retrieved from: <https://home.barclays/investor-relations/>
10. Monetary Authority of Singapore (MAS). (2020). Technology Risk Management Guidelines. Retrieved from: <https://www.mas.gov.sg/regulation/guidelines>
11. Wells Fargo & Company. (2020). Cybersecurity and Risk Monitoring Practices. Retrieved from: <https://www.wellsfargo.com/about/corporate/governance/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---